Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.112.2
FILOLOGIYA

NEMIS VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI O'TIMLI FE'LLAR VA ULARNING PASSIV YASALISHI.

Gulnur Joldasbaevna Reymova*
Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs tayanch doktorant
✉ asemkaaziko8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nemis va qoraqalpoq tillarida fe'lning o'timli va o'timsizlik kategoriyalari hamda ularning majhul nisbat (passiv) konstruksiyalarini hosil qilishdagi o'rni qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilingan. Fe'lning valentligi, obyekt bilan munosabati, tranzitivlik va intranzitivlik xususiyatlari nemis va qoraqalpoq tilshunoslarining nazariy qarashlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar

nemis tili, qoraqalpoq tili, fe'l, nisbat kategoriyasi, majhul nisbat, passiv, o'timli fe'l, o'timsiz fe'l, tranzitivlik, intranzitivlik, valentlik, kommunikativ-pragmatik funksiya, qiyosiy tilshunoslik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743072

KIRISH

Bir-biriga yaqin bo'lmagan turli tillar oilasiga kiruvchi tillarning turli nazariy jihatlarini qiyosiy o'rganish XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikning muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa grammatikasi asosida yaratilgan o'zbek tili grammatikasida so'zlarning o'zgarishi, bir-biriga bog'lanishi, gap tuzishdagi tartib qoidalarini yaratuvchi grammatik kategoriyalar o'rganilgan bo'lsa, taraqqiyot bosqichining keyingi davrida tilshunos olimlarning e'tiborini fe'l harakat-holati jarayonlarini o'rganish o'ziga qarata boshladi.

Ilmiy adabiyotlardan ma'lum bo'lganidek, fe'lning nisbat kategoriyasining yasalishi, bevosita o'timli va o'timsiz fe'llar bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, nemis tilidagi fe'lning o'timli va o'timsizlik (tranzitiv/intransitiv), o'zlik va egasiz shakllari bilan fe'lning nisbat kategoriyasi o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha tilshunos olimlar o'rtasida tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Masalan, nemis va rus tillarida fe'lning zamon kategoriyasi tur kategoriyasi bilan chambarchas bog'langan bo'lsa, nemis, o'zbek va rus tillarida fe'lning nisbat kategoriyasi o'timli va o'timsizlik kategoriyasi bilan chambarchas bog'langan.

Tilshunoslikda aktivga qarama-qarshi passiv oppozitsiyasi faqat o'timli fe'llarga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Odatda, tushum kelishigida qo'llanilib, vositasiz to'ldiruvchini boshqaruvchi fe'llar o'timli (tranzitiv) fe'llar deb ataladi. O'timli fe'llarga bu kelishikni talab qilmaydigan o'timsiz (intranzitiv) fe'llar qarshi turadi. O'timsiz fe'llar, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi: birinchi turda, jo'nalish kelishigi yoki qaratqich kelishigining ko'makchili yoki ko'makchisiz vositali to'ldiruvchilarini boshqaruvchi fe'llar kiradi. Barcha vositali yoki vositasiz to'ldiruvchilarni boshqaruvchi fe'llar ikki tomonli fe'llar deyiladi, bunday xususiyatga ega bo'lmagan fe'llar esa bir tomonli fe'llar deb yuritiladi [9: 6-7].

V.Admoni o'zining "Der deutsche Sprachbau" nomli kitobida fe'l valentligi va ularning Verbtransitiv (o'timli fe'l) yoki Verbintransitiv (o'timsiz fe'l) shakllarida qo'llanilishiga keng to'xtalib o'tadi. Ikki va bir valentli o'timli fe'llar o'rtasidagi farq voqea-harakat bilan bog'liq bo'lgan fe'l boshqaruvida bo'lib hisoblanadi. Ham vositali, ham vositasiz to'ldiruvchini boshqaruvchi fe'llarni shartli ravishda o'rta o'timli fe'llar deb ataydi.

Bunday fe'llar bilan bog'liq obyektlar o'z xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi: ulardan birini anglatib, tushum kelishigida qo'llanib turgan predmet bevosita ish harakat ta'siriga uchraydi, ikkinchi obyektni ifodalagan, jo'nalish kelishigida turgan predmetga ish-harakat uning manfaati yo'lida qaratiladi va harakat ta'siriga uchramaydi [1:101].

Masalan: *Er gab ihm ein Buch*

H.Buscha nemis tilidagi o'timli fe'llarning vositasiz va vositali to'ldiruvchilar bilan bog'lanish darajasini quyidagi misollar yordamida tahlil qiladi, ya'ni Helbig Buschaning fikriga ko'ra, vositasiz to'ldiruvchi ko'pincha gapda ishlatilmay qolishi mumkin, vositali to'ldiruvchilarning gap tarkibidan bunday ishlatilmay qolishi mumkin emas:

Die Schneiderin näht der Mutter ein Kleid.

Die Schneiderin näht ein Kleid.

Die Schneiderin näht der Mutter.

Fe'lning o'timli turi va ularning passiv yasash usullari haqida nemis tilshunos olimlari Brinkmann, Duden va Helbig, Buschalarning nemis tili grammatikasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarida ta'rifi atroflicha yoritib berilgan bo'lsa-da [2:202-203],[3:107],[4:53], Shendels va V.Yung o'zlarining "Grundzüge einer deutschen Grammatik" nomli ilmiy ishida "o'timli fe'l" terminini nafaqat an'anaviy tushunchada, balki Passiv yasay olishiga qarab passiv yasay oladigan "passivfähige Verben" fe'llar deb qarash maqsadga muvofiq degan fikrlar keltiriladi [7:115],[10:219].

Fe'lning nisbat kategoriyasi harakat subyekti bilan obyekti o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Harakatning obyektga bo'lgan munosabatiga qarab fe'llarni o'timli fe'llar va o'timsiz fe'llar deb ikki guruhga bo'linadi. O'timli fe'llar harakatning predmetga bevosita o'tishini bildiradi. Barcha tillardagi kabi qoraqalpoq tilida ham o'timli fe'llar tushum kelishigi bilan qo'llanilib kelgan so'zni boshqarib keladi.

Demak, qoraqalpoq tilida fe'lning o'timli va o'timsizlik ma'nosi ish-harakat qaratilgan obyektning ma'lum bir kelishik boshqaruvi bilan aniqlanadi. Ayrim fe'llar ifodalagan harakat-holat obyektga o'tib, to'ldiruvchi (obyekt) o'timli fe'l kesimdan oldin kelib kimni?, nimani? degan savollarga javob berib keladi, obyekt sifatida qo'llanib kelgan predmetga -nı/ni, -tı/ti qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasaladi, ayrim hollarda to'ldiruvchi obyekt funksiyasida kelib turgan so'zdan bu qo'shimchalar tushib qolishi ham mumkin. Bu yashirin kelishik qo'shimchasi hisoblanadi.

Masalan: *Bala* ***kitap*** *oqıdı*.

Fe'llarning o'timli va o'timsizlik ma'nosi ish-harakatga qaratilgan obyektning ma'lum kelishik qo'shimchalari orqali bilinadi. Ba'zi fe'llardan ifodalangan ish-harakat obyektga to'g'ridan-to'g'ri o'tib, kelishikdagi so'zlarni boshqarib keladi. Bunday tushum kelishigidagi obyektni talab qilib kelgan fe'llar o'timli fe'l ma'nosini bildiradi: : *oqı (kitaptı oqı), jaz (xat jaz), ash (esikti ash), qaz (japtı qaz), tazala (kósheni tazala), kultivatsiyala (ǵawashanı kultivatsiyala), suwǵar (ǵawashanı suwǵar), v.b.*

Fe'llardan ifodalangan ish-harakatlar to'g'ri obyektga bevosita munosabatda bo'lmasdan, ba'zan faqat subyektga yoki yo'nalish, chiqish, o'rin kelishigidagi so'zlarga aloqador bo'lib keladi. Bunday tushum kelishigidagi to'g'ri obyektni talab qilmaydigan fe'llar o'timsiz fe'llar deyiladi: *kel, ket, tur, otır, kir, shıq, ót, bar, qash, otla, uyıqla, baslandı, quwandı, ornadi, júrdi, v.b.*

Bu fe'llarni kontekstda keltirib aytganda tushum kelishigini talab qilmay, boshqa kelishik shakllaridagi so'zlarni boshqarib turadi [8:198].

Masalan:

Tústen keyin Tórejan dayım keldi (K.R.).

Qabıl órre turdı. Dalaǵa shıqtı (T.Q).

Odatda qoraqalpoq tilida majhul nisbat darajasi morfologik kategoriya kabi, sintaktik hodisa sifatida - kommunikativ sintaksis doirasida qaraladi.

Har qanday tildagi fe'lning nisbat kategoriyasini aniq ko'rsatib beruvchi ***Bala kitap oqıdı – Kitap bala tórepinen oqıldı. Das Kind las – Das Buch wurde vom Kind gelesen*** nisbat oppozitsiyasi faqat o'timli (tranzit) fe'llarga xos. An'anaviy qarashlardan ma'lum bo'lganidek, aynan vositasiz to'ldiruvchini, ya'ni tushum kelishigidagi to'ldiruvchilarni boshqaruvchi fe'llar o'timli fe'llar deb ataladi.

XULOSA

Shunday qilib, nemis va qoraqalpoq tillarida fe’lning o‘timli va o‘timsizlik kategoriyasi passiv konstruksiyalarni hosil qilishning asosiy grammatik omillaridan biri hisoblanadi. Har ikkala tilda ham passiv oppozitsiyasi, asosan, o‘timli fe’llar asosida yuzaga keladi. Shu bilan birga, ayrim o‘timli fe’llar vositasiz to‘ldiruvchi bilan bir qatorda vositali to‘ldiruvchilarni ham boshqarishi mumkin. Bu esa ularning valentlik xususiyatlarini va passivlashish imkoniyatlarini belgilovchi muhim omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка.-М.:Наука,1973.-366с
2. Brinkmann H. Die deutsche Sprache: Gestalt und Leistung. Düsseldorf. 1972. S.939
3. Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache Mannheim.1984.S.800
4. Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. 8.neubearb.Aufl.Leipzig, 1984. S. 324
5. Qayıpbergenov T. - Qaraqalpaq dástanı. Qaraqalpaqstan baspası Nókis, 1973.-457 b.
6. Raxmanov K. Aqıbet. Qaraqalpaqstan baspası Nókis, 1993.-400b
7. Шендельс Е.И. Deutsche Grammatik: Morphologie.Syntax.Text.- М.:Высшая школа,1979. S.396
8. Ҳәзирги қарақалпақ әдебий тилиниң грамматикасы. Сөз жасалыў ҳәм морфология. Нөкис 1994, 451б.
9. Шубик С.А. Категория залога и поле залоговости в немецком языке. - Л.:Наука,1989.-122 с.
10. Юнг В. Грамматика немецкого языка. - С.- П.: Лань, 1996. - 544 с.